

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Davlat test markazining Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi
to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Boshqarma) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tuzilmasining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 130-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to‘g‘risida Nizom» asosida ishlab chiqilgan mazkur Nizomga binoan tashkil etadi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli Farmon, Qaror, Farmoyishlariga amal qiladi.

3. Boshqarma quyidagi 4 ta bo‘limdan tashkil topgan:

Testologiya, pedagogik o‘lchovlar va ilmiy-metodik kadrlar tayyorlash bo‘limi;

Umumta’lim fanlari bo‘yicha test topshiriqlarini shakllantirish bo‘limi;

Maxsus fanlar bo‘yicha test topshiriqlarini shakllantirish bo‘limi;

Test savollari bazasi bilan ishlash bo‘limi.

4. Boshqarma barcha turdagi test sinovlarini umumta’lim, maxsus fanlardan test topshiriqlarini ishlab chiqishga, pedagogik o‘lchov vositalarini takomillashtirishga, foydalanuvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqishga, test topshiriqlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishga mas’uldir.

2-bob. Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat ta’lim standartlari va talablariga muvofiq test topshiriqlari bankini shakllantirish, pedagogik o‘lchov vositalarini takomillashtirish;

testologiya va pedagogik o‘lchovlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish;

test topshiriqlarni aprobatsiyadan o‘tkazish;

pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish;

test sinovlari uchun murakkablik darajasi ta'lim standartlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan test topshiriqlarining elektron bazasini yaratish.

6. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

yuqori malakali mutaxassislardan iborat umumta'lim va maxsus fanlar ekspertlari bankini shakllantiradi;

pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish talablari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish, ekspertlar uchun testologiya asoslari bo'yicha seminarlar tashkil etadi;

davlat ta'lim standartlariga muvofiq bo'lgan fanlar bo'yicha turli xil murakkablik darajasidagi test materiallarini ishlab chiqadi;

test sinovlari natijalari asosida test materiallari bankini maxsus dastur asosida statistik tahlil qilish va uni takomillashtiradi;

ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida test materiallari bankini shakllantirish texnologiyasini takomillashtiradi;

umumta'lim fanlari bo'yicha respublika olimpiadasining yakuniy bosqichi uchun test materiallari bankini shakllantiradi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan chaqiriluvchilarning bilim saviyasini baholash uchun test materiallari bankini shakllantiradi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda muddatli harbiy xizmatni tugatayotgan harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarligi va ijtimoiy-ma'naviy bilimlarini baholash uchun test materiallari bankini shakllantiradi;

ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul test sinovlari uchun maxsus fanlardan test materiallari bankini shakllantiradi;

test materiallari maxfiylikni saqlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshiradi;

test materiallari bankini shakllantirish, test sinovlarini o'tkazish masalalari sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

ilmiy tadqiqot o'tkazish natijalari asosida takomillashtirilgan pedagogik o'lchovlar vositalarining namunalari ishlab chiqadi va aprotatsiyadan o'tkazadi;

testologiya va pedagogik o'lchovlar sohasi bo'yicha ilmiy, amaliy, o'quv va boshqa materiallarni ekspertizadan o'tkazadi;

pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish talablari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqadi;

ekspertlar uchun testologiya asoslari va pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish bo'yicha seminarlar tashkil etadi.

3-bob. Boshqarmaning huquqlari va majburiyatlari

7. Boshqarma o'z vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

Boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun vazirliklar, idoralar, ta'lim muassasalaridan zarur ma'lumotlar va materiallarni olish;

Boshqarmaga yuklangan vazifalarni hal etish uchun olimlar, yetakchi pedagog-mutaxassislar, xorijiy ekspertlarni jalb etish, shuningdek ixtisoslashtirilgan, maqsadli va vaqtinchalik ilmiy-tadqiqot guruhlarini hamda ijodiy guruhlar tashkil etish uchun Davlat test markazi rahbariyatiga taklif kiritish;

Testologiya va pedagogik o'lchovlar muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik dastur, loyiha, simpoziumlarda va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

Boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha shartnoma asosida konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

8. Boshqarma Davlat test markazi vakolati doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarish majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishida takliflar kiritadi;

boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birga qo'shma qarorlar, buyruqlar va boshqa hujjatlar loyihasini tayyorlashda ishtirok etadi.

9. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni samarali bajarilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

4-bob. Boshqarma ishini tashkil etish

10. Boshqarma ishiga doimiy rahbarlik qilish uning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

11. Boshqarma boshlig'i Boshqarma oldiga qo'yilgan vazifa va majburiyatlarning bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

12. Boshqarma faoliyati hamda ushbu Nizomda kelib chiqadigan vazifalarni hal etishga Boshqarma boshlig'i vakolatlidir. U Boshqarma faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar va uslubiy yo'riqnomalarning ishlab chiqilishiga bevosita rahbarlik qiladi, tashkilotlar va fuqarolar bilan Boshqarma faoliyatiga tegishli aloqani olib boradi.

13. Boshqarma shtatlari soni Davlat test markazi tuzilmasidagi cheklangan sonda shakllantiriladi.

14. Boshqarma xodimlari o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni sifatli bajarish, xuquqlaridan to'g'ri foydalanish, o'z faoliyatlarida qonunchilik va davlat manfaatlariga to'la amal qilish uchun javobgardir.